

О‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH USULLARINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK TAMOYILLARI

Movlanova Ulxon Xurramovna

Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumani
MMTBga qarashli 24-umumiy o‘rta ta’lim
maktabning psixologi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish jarayonining ijtimoiy va psixologik tamoyillari tahlil qilinadi. Kasb tanlashda o‘quvchi shaxsining qiziqishi, qobiliyati, oila va jamiyatning roli, shuningdek, maktabdagi pedagogik muhitning ta’siri ilmiy asosda yoritilgan. Kasbga yo‘naltirishda zamonaviy yondashuvlar, individual va differensial yondashuvning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: kasb-hunar, o‘quvchi, ta’lim, ota-ona, o‘qituvchi, kasbga yo‘naltirish, umumta’lim maktablari, imkoniyatlar, qobiliyat.

Kasb tanlash jarayoni ijtimoiy ahamiyat kasb etgani holda, u individual shaxsiyat bilan bevosita bog‘liq. Shuning uchun ham har bir kasb tanlovchi shaxsga nisbatan individual yondashuv zarur. Har bir o‘quvchi o‘z qiziqishlari, qobiliyatlari, ehtiyojlari bilan ajralib turadi. Kasbiy bilim esa – shaxsni kasbning mohiyati, imkoniyatlari, ijtimoiy vazifalari hamda bu kasbga qo‘yiladigan talablar bilan tanishtirish orqali unga ongli yondashuvni shakllantiruvchi axborotlar majmuasidir. Kasbga oid ma’lumotlar shunchaki axborot emas, balki ta’sirchan, hayotiy, to‘laqonli, ijtimoiy va shaxsiy qiymatga ega bo‘lgan bilimlar tizimidir. Ushbu axborotlarning taqdim etilish shakllari o‘quvchining yoshi, bilimi, jinsiy xususiyatlari va psixologik holatiga qarab farqlanadi. Kasb maorifi verbal (og‘zaki) va noverbal (ko‘rgazmali), amaliy (tajriba asosidagi) va interaktiv (muloqotga asoslangan) shakllarda olib borilishi mumkin. Jumladan, kuzatuv, ko‘rgazmalar, kasb egalari bilan uchrashuvlar, kasb festivallari, tanlovlar orqali o‘quvchilarda kasbga nisbatan qiziqish uyg‘otiladi. To‘g‘ri tanlangan kasb inson

hayotida ijodiylik, mehnatdan mamnunlik, o'z-o'zini anglash va rivojlantirish vositasiga aylanadi. Bu esa nafaqat shaxs uchun, balki jamiyat uchun ham katta foyda keltiradi. Zero, jamiyatning taraqqiyoti o'z ishini sevgan va ongli ravishda kasb tanlagan insonlar faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Global ta'lim tajribasida, xususan YUNESKO tomonidan ilgari surilgan tavsiyalarda, kasbga yo'naltirish o'quvchilarning ilmiy qarashlarini shakllantirish, jismoniy va aqliy salohiyatini uyg'un rivojlantirish, texnik vositalardan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilishda muhim vosita sifatida baholangan. Shu jihatdan, umumiy o'rta ta'lim tizimi oldida o'quvchilarning kasbiy yo'nalishini aniqlash va uni to'g'ri shakllantirishdek mas'uliyatli vazifa turadi.

Kasbga yo'naltirish tizimi – bu har bir shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olib, jamiyat iqtisodiy manfaatlariga mos keladigan kasbni ongli ravishda tanlashga tayyorlovchi uzviy, izchil va ilmiy asoslangan faoliyatdir. Bu tizim o'z ichiga maqsadlar, tamoyillar, metodlar, vositalar va samaradorlik mezonlarini qamrab oladi. Ayniqsa, bu jarayonda psixologlar, sinf rahbarlari, fan o'qituvchilari va ota-onalar hamkorligining izchil yo'lga qo'yilishi kasbga yo'naltirishning natijadorligini belgilaydi. Kasbga yo'naltirishda turli fan o'qituvchilari o'z fanlari doirasida kasbga oid bilim va malakalarni bog'lab, integratsiyalashgan yondashuv orqali o'quvchilarda kasbiy tasavvurni mustahkamlashi mumkin. Kasb-hunar mohiyati bilan amaliy tanishtirish o'quvchida qiziqish uyg'otadi, mustaqil o'rganishga undaydi va bu ko'nikmalar asta-sekin odatga aylanadi. Shuningdek, maktablarda kasbga yo'naltirish haftaliklari, mehnat yarmarkalari, kasb egalari bilan uchrashuvlar, mahorat darslari, interaktiv loyihalar, ijtimoiy so'rovlar kabi tadbirlar orqali o'quvchilarda kasbiy motivatsiyani shakllantirish muhimdir. Bunday yondashuvlar o'quvchining o'z imkoniyatlarini anglashiga, kelajakdagi kasb tanloviga ongli tarzda yondashishiga zamin yaratadi.



Kasbga yoʻnaltirish barcha oʻquv tarbiya ishlari bilan koʻnikib olib boriladi. Ongli kasb tanlash etarli darajadagi umumiy tayyorgarlikka ega boʻlgan taqdirdagina mumkin boʻladi. Oʻquvchini u yoki bu kasbga maqsadli yoʻnaltirishdan avval uning shaxsini oʻrganish lozim. Buning uchun uni kuzatish (bevosita, bilvosita) oʻquvchining maktabdagi, jamoat joylaridagi, oila va mehnatdagi amaliy harakatlarning tahlil qilish, soʻrovnoma oʻtkazish, suhbat, test, interv'yu olish mumkin. Kasbga yoʻnaltirishda turli kasblar, ularga qoʻyiladigan talablar, bu kasbni qayerda egallashlari mumkinligi toʻgʻrisida oʻquvchilarga maʼlumot berish katta ahamiyatga ega. Bu esa oʻquvchilarni aniq kasbni tanlashga ongli munosabatda boʻlishga tayyorlaydi. Oʻquvchilar kasblar toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni-bilimlarni faqat maktabda emas, balki ommaviy axborot vositalaridan, tanishlari, qarindoshlaridan ham oladilar. Yoshlar oʻz oldilarida haqiqiy, keng hayot yoʻli ochilishi uchun koʻp kuch- gʻayrat sarflashlari kerak va eng asosiysi-oʻz koʻngillariga yoqqan, jamiyatga zarur va foydali ishni tanlashlari lozim. Shu boisdan ham oʻrta maktabni bitirayotgan yigit va qizlarning koʻpchiligi qanday kasb egasi boʻlish toʻgʻrisida koʻp oʻylaydilar.

Mamlakatimizda turli kasblarni egallash uchun barcha sharoit yaratilgan. Ayniqsa, ishchi kasblarni oʻrganishning juda keng imkoniyatlari mavjud, jumladan, Respublikamizda ishchi kadrlar tayyorlashga jiddiy eʼtibor berilmoqda, kasb-hunar

kollejarida yoshlar turli kasblarga o'rgatilmoqda. Yoshlarga maktabdayoq, mazkur rejaning xalq xo'jaligini rivojlantirish uchun eng kerakli bo'lgan aniq ixtisos bo'yicha kasbiy tayorgarlik berish lozim.

Bugungi kunda faoliyat ko'rsatayotgan amaliy psixologlarning vazifalari asosan 6 ta yo'nalish bilan belgilanadi, jumladan:

1. Psixologik xizmat ko'rsatish faoliyatini maktabni hozirga zamon psixologiya fani yutuqlari bilan ilmiy-uslubiyot bo'yicha ta'minlashga;
2. Insonning shaxsiy va intellektual (aqliy) jihatdan rivojlanishini diagnostika qilishga;
3. Ta'lim va tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniqlashga;
4. Eng muhim mavjud kamchilik va buzilishlarning oldini olish (psixoprofiaktika)ga yo'naltirilgan bo'lishi;
5. Kasbga yo'naltirish;
6. Psixologik maslahatlar berish.

Psixoprofilaktikaning asosiy vazifalari bo'lib:

1. Har bir yosh bosqichida insonning shaxs sifatida shakllanishi aqlan barkamollikni ta'minlashning oqilona shart-sharoitlarini yaratish.
2. Shaxs kamoloti va intellektual taraqqiyoti bo'sag'asida vujudga kelishi mumkin bo'lgan psixologik buzili shva nuqsonlarning o'z vaqtida oldini olish hisoblanadi [6.47.b].

Bugungi kunda o'quvchilar tomonidan kasb tanlash masalasi tobora murakkablashib borayotgan dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Ijtimoiy hayotning jadal sur'atlar bilan rivojlanib borishi, yangi-yangi kasblarning paydo bo'lishi va mehnat bozoridagi raqobat muhiti shundan dalolat beradiki, har bir yosh yigit-qiz uchun o'ziga mos, istiqbolli kasb tanlash zarurati kundan kunga ortib bormoqda. Prezidentimiz qayta-qayta ta'kidlayotganidek, O'zbekistonda har bir yigit-qiz o'z salohiyatiga, layoqatiga, kasb-hunar malakasiga va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda ish tanlash huquqiga egadir. Ushbu huquqni amaliyotda to'liq ta'minlash esa

o'quvchilarning ongli, maqsadli va puxta tayyorgarlikka asoslangan kasb tanlovi orqali ro'yobga chiqadi.

Kasb tanlash — bu shunchaki ishsiz qolmaslik uchun biror yo'nalishni tanlash emas, balki insonning butun hayot faoliyati, ijtimoiy mavqei, ma'naviy qoniqishi va iqtisodiy farovonligiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan muhim qarordir. Shuning uchun bu jarayonni to'g'ri tashkil qilish, o'quvchilarga kasb tanlash bo'yicha zarur ko'nikmalar va psixologik tayyorgarlik berish umumta'lim maktablari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir.

Aksar hollarda o'quvchilar kasb tanlashda bir necha muammolarga duch keladilar. Bular orasida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- ✓ Kasblar haqida yetarli ma'lumotga ega emaslik;
- ✓ O'z qiziqishi va qobiliyatlarini to'g'ri baholay olmaslik;
- ✓ Ota-ona yoki atrofdagilarning bosimi ostida noto'g'ri tanlov qilish;
- ✓ Mehnat bozoridagi real talablar bilan tanishmaslik;
- ✓ O'z-o'zini anglash, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmasining pastligi.

Mazkur muammolarni bartaraf etishda quyidagi amaliy yo'llar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. **Ta'limning erta bosqichlaridan boshlab kasbga yo'naltirish ishlarini** tizimli tashkil etish. Bu orqali o'quvchilar o'zlari haqida, ijtimoiy-iqtisodiy muhit haqida, kasblarning mazmun-mohiyati haqida dastlabki tasavvurlar hosil qiladilar.

2. **Kasbga oid axborotlarning keng taqdimoti** — kasb ko'rgazmalari, mutaxassislar bilan uchrashuvlar, kasb-hunar yarmarkalari orqali o'quvchilar kasblarning real sharoitlari, mehnat bozori talablari bilan tanishtiriladi.

3. **Kasb tanlashda psixologik maslahatlar** — maktab psixologlari o'quvchilarning individual qiziqishlari, qobiliyatlari, temperament xususiyatlarini aniqlash orqali ularga mos keluvchi kasblar bo'yicha tavsiyalar beradi.

4. **Ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash** — o'quvchilar kasb tanlashida ota-onalar fikrini inkor etmaydi, shu bois ota-onalarni bu jarayonga ongli jalb etish, ular orasida kasb tanlash madaniyatini shakllantirish muhimdir.

5. **Ijtimoiy sheriklik** — mahalliy korxona va tashkilotlar, hunar markazlari bilan hamkorlikda amaliy mashg'ulotlar va stajirovkalarni yo'lga qo'yish orqali o'quvchilarda kasbga bo'lgan qiziqish uyg'otiladi.

Shu bois, o'quvchilarni kasb tanlashga puxta tayyorlash, ularning hayot yo'lini to'g'ri belgilashda maktab pedagoglari, psixologlar, ota-onalar va jamiyatning boshqa ijtimoiy institutlari o'zaro hamkorlikda harakat qilishi zarur. Kasb tanlashdagi xatoliklar kelgusida insonning mehnatga nisbatan befarqligiga, ishsizlikka, ijtimoiy muammolarga olib kelishi mumkin. Aksincha, to'g'ri tanlangan kasb esa – shaxsiy baxt, jamiyat manfaatlariga xizmat, mustahkam ijtimoiy maqom va iqtisodiy barqarorlik garovidir.



Kasblarni egallash yo'llari bilan atroflicha tanishtirish juda muhim. Maktab tizimida to'garaklar muhim o'rin tutadi, fan to'garaklari, elektrotexnika, radiotexnika, avtomobil', traktor, pillachilik, o'simlikshunoslik to'garaklarida bolalar bilimlarini kengaytirish bilan, kasb tanlashga amaliy tayyorlanadi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ularning maktabdagi ko'zda tutilgan unumli mehnati va ijtimoiy foydali ishlaridan ham foydalanish zarur. Masalan, o'quvchilarning qishloq xo'jalik ishlari bilan shug'ullanishlari, ko'rgazmali qurollar yasash, shanbaliklar, obodonlashtirish ishlarida mehnat madaniyatini egallaydilar, ma'lum kasbga yo'nalishlar hosil bo'ladi. O'quvchilarni kasb tanlashga tayyorlashda xalq pedagogikasida ko'rsatilganidek, o'quvchilarning uy mehnatidan foydalanish kerak. Ular uy hayvonlarini parvarish qilish, sabzavot ekinlarini o'stirish, taom tayyorlash, texnika asboblari tuzatish kabi ishlar o'quvchilarning kasb to'g'risidagi tushunchalarini kengaytiradi.

Kasbga yo'naltirishga oid ma'ruza va suhbatlarda; kasb mazmuni, ixtisoslar ahamiyati, istiqboli, ishning tashkiliy shakllari va metodlari, mehnat qurollari, imkoniyatlar, moddiy ahvoli, o'rganish yo'llari haqida fikr yuritish lozim. O'quvchilar diqqatini kasb tanlash masalalariga jalb etish va ularga kasblar haqida tushuncha berish uchun maktablarda kasbga yo'naltirish xonasi, burchak tashkil etadi. Unda quyidagilar bo'lishi lozim: adabiyotlar ro'yxati, kasb obyektlari, fotosuratlar, rasmlar, plakatlar, sxemalar, shu maktabni bitirgan va hozirgi kunda xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida faol ishlayotgan o'quvchilar haqida ma'lumot va boshqalar. O'quvchilarni kasblar bilan tanishtirish uchun kasb va uning vakillari haqida ma'lumot beradigan adabiyotlarni, fan, texnika, san'at ishlab chiqarish kishilari haqida hikoya va ocherklardan foydalanish kerak. O'quvchilarni kasblar bilan tanishtirish maqsadida ular uchun turli kasb va ixtisos vakillari bilan uchrashuv va suhbatlar o'tkazish lozim. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda ota-onalar ham manfaatdordirlar. Shuning uchun ham o'quvchilarning ota-onalari bilan aloqa o'rnatish zarur. Ota-onalar ham maktabga yordam berishlari, maktabda o'z kasblari bo'yicha suhbat, ma'ruza, konsul'tasiya, uchrashuvlar uyushtirishlari mumkin bo'ladi.

Xulosa

Kasbga yoʻnaltirish – oʻquvchi shaxsining oʻzini anglash, mehnatga munosabati va kelajakdagi ijtimoiy roli haqida tasavvurlarni shakllantirishning muhim bosqichidir. Bu jarayonda ijtimoiy va psixologik omillar, pedagogik yondashuvlar, ota-ona va jamiyat bilan hamkorlik asosiy oʻrinda turadi. Shuning uchun ham kasb tanlash jarayonini faqat axborot berish emas, balki tarbiyaviy, maʼnaviy, ilmiy va psixologik jihatdan qoʻllab-quvvatlash tizimi sifatida qarash zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. — T.: Fan. 2003.
2. Nishanova Z.T., Dusmuxamedova Sh.A. va b. «Yosh davrlari va pedagogik psixologiya». — T.: Fan va texnologiyalar nashriyotining bosmaxonasi. 2013. - 344 b
3. Эльконин Д.Б., Давыдов В.В. Возрастные возможности усвоения знаний. - М: Просвещение, 1966. -442с
4. www.ziynet.uz
5. Saviya.uz